

Isroilov Faxriddin Murodqosimovich
dotsent, Jizzax politexnika instituti

GAZ HISOBLAGICHLARINI SINOVDAN O‘TKAZISH VA NAZORAT QILISH

Annotatsiya: Ekspluatatsiyada turgan va saqlanayotgan o‘lchov vositalarini davlat tekshiruvi va nazorati sohasida foydalaniladigan qiyoslash me‘yor-qoidalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: gaz hisoblagich, korxona, faza, hududiy gaz tarmoqlari, ekspluatatsiya, sertifikat, birlamchi, davriy, navbatdan tashqari, inspeksion va ekspert qiyoslash.

Isroilov Fakhriddin Murat Kasimovich
associate professor, Jizzakh Polytechnic Institute

TESTING GAS METERS TRANSFER AND CONTROL

Annotation: an analysis of the benchmarking norms used in the field of state inspection and control of measuring instruments standing and stored in operation is carried out.

Keywords: gas meter, enterprise, phase, Regional Gas Networks, operation, certificate, Primary, Periodic, extraordinary, inspection and expert comparison.

Gaz hisoblagichni “Gaz hisoblagich” korxonasining “aqlli” hisoblagichlari bir fazali va uch fazali qilib ishlab chiqarilgan. Shu bilan birga, konsentrator qurilmasi ham mavjud. Bu ham “Kaifa” qurilmalari singari ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Iste‘molchida qarzдорlik yuzaga kelishi oqibatida uni tarmoqdan vaqtincha uzish lozim bo‘lsa, dastur konsentratorga ma‘lum bir hisoblagichni tarmoqdan uzish buyrug‘ini beradi, konsentrator o‘sha raqamli hisoblagichni tarmoqdan vaqtincha uzadi. Shu bilan elektr energiyasi yetkazib berish kelgusi to‘lov amalga oshirilgunga qadar vaqtincha to‘xtatiladi.

Jismoniy shaxslar uchun elektron raqamli imzo olish:

- arizachi YaIDXPda ro'yxatdan o'tadi, arizani to'ldiradi va davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun haq to'laydi;
- vakolatli organ arizani ko'rib chiqadi va ERI sertifikatini arizachiga yuboradi;
- arizachi YaIDXP dagi shaxsiy kabinetiga kirib, ERI kaliti sertifikatini olinganligini tasdiqlaydi.

Raqamli elektron hisoblagichlar ham davlat tekshiruv va nazorati sohasida foydalaniladigan, qiyoslanishi lozim bo'lgan O'Vning ro'yxati O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan tasdiqlangan bo'ladi.

O'V ni Davlat qiyoslashini davlat metrologik xizmati idoralari o'tkazadi, lekin O'V ni qiyoslash huquqi yuridik shaxslarning akkreditlangan metrologik xizmatlariga ham topshirilishi mumkin.

Boshqa davlatlarda bajarilgan O'V ni qiyoslash natijalari xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida tan olinadi.

Ekspluatatsiyada turgan, ishlab chiqarilgan, ta'minlangan va import bo'yicha sotib olinadigan O'V ni qiyoslashni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha asosiy nizomlar O'z DSt 8.003:2005 "O'z O'DT. O'lchash vositalarini qiyoslash. Asosiy nizomlar" da bayon etilgan.

Ekspluatatsiyada turgan, ishlab chiqarilgan, ta'minlangan va import bo'yicha sotib olinadigan barcha O'V davlat qiyoslashidan o'tishi lozim.

O'V birlamchi, davriy, navbatdan tashqari, inspeksion va ekspert qiyoslashdan o'tkaziladi.

Ishlab chiqarishdan yoki ta'mirlashdan chiqqan va import bo'yicha keltiriladigan O'V birlamchi qiyoslashdan o'tkaziladi. O'V ning har bir nus'hasi birlamchi qiyoslashdan o'tkaziladi. O'V yalpi ishlab chiqarilganda tanlab qiyoslash ruxsat etiladi. Tanlab birlamchi qiyoslash qoidalari, o'tkazish tartibi bu O'V ni qiyoslash metodikasida ko'rsatiladi.

Ekspluatatsiyada turgan yoki operativ saqlanayotgan O'V

qiyoslashlararo oraliq vaqtlardan keyin davriy qiyoslashdan o'tkaziladi. Davriy qiyoslash vaqti o'lchash vositasining bu davr ichida yaroqliligini ta'minlashni hisobga olgan holda aniqlanadi va belgilanadi.

Davriy qiyoslashlar o'rtasidagi vaqt:

davlat qiyoslashiga taqdim etilgan o'lchash vositasiga davlat metrologik xizmati idoralari tomonidan belgilanadi.

Davlat davriy qiyoslashi namunaviy va ishchi O'V ni qiyoslash grafiklari (shartnomalari) da belgilangan kalendar muddatlarda o'tkaziladi.

Ekspluatatsiyada turgan va saqlanayotgan O'V uchun navbatdan tashqari qiyoslash quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- qiyoslashlararo davrning yarim vaqti o'tgandan keyin o'lchash vositasidan butlovchi sifatida foydalanilganda;

- qiyoslash tamg'asi, plombasi, shikastlanganda yoki O'V ning birlamchi yoki davriy qiyoslashdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjatlar yo'qolganda;

- agar qiyoslash tamg'asining yoki o'lchash vositasining qo'llanishga yaroqliligini tasdiqlovchi hujjatning amal qilinish muddati tugagan bo'lsa, saqlashdan olinib ekspluatatsiyaga kiritishda;

- qiyoslashlararo vaqt ichida xaridga chiqarilmagan O'V ni tayyorlovchi korxona iste'molchiga yetkazib berishda.

O'lchash vositasining holati va qo'llanilishini davlat nazoratidan va mahkama tekshiruvidan o'tkazishda O'V ning qo'llanishga yaroqli ekanligini aniqlash uchun inspeksion qiyoslash o'tkaziladi. O'V ni inspeksion qiyoslash natijalari davlat yoki mahkama tekshiruvi dalolatnomasida aks ettiriladi.

Davlat qiyoslashidan majburiy ravishda o'tkaziladigan vositalar:

- a) davlat metrologik xizmatlarining va tadbirkorlik sub'ektlarining namunaviy o'lchash vositalari;

- b) o'zining bevosita vazifasiga muvofiq namunaviy O'V sifatida yoki tayyorlashga buyurtнома shartlari bo'yicha ishlab chiqarilgan O'V;

v) nurlanishni ionlovchi va tarkibida nurlanishni ionlovchi manba bor bo'lgan O'V;

g) priborlarni ta'mirlovchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlari chiqargan, ta'mirdan keyin boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga berish uchun mo'ljallangan O'V;

d) milliy va xalqaro sport rekordlarini qayd qilish bilan bog'liq o'lchash vositalari;

ye) davlat arbitraj idoralari tomonidan ekspertiza o'tkazishda, shuningdek bojxona tekshiruvida o'lchashlar uchun qo'llaniladigan O'V;

k) o'lchash uchun ishchi O'V sifatida qo'llaniladigan, o'lchash natijalari:

- tabiatni muhofazalash;
- sog'liqni saqlash;
- mehnat xavfsizligini ta'minlash;
- barcha turdagi transportning harakat xavfsizligini ta'minlash;
- ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarning xavfsizligini ta'minlash; aloqa tizimlarini ta'minlash;
- xo'jaliklararo o'zaro hisoblashlar; savdning barcha turlari;
- aholiga pulli xizmatlarning barcha turlari uchun qo'llaniladigan O'V.

O'lchash vositalarini qiyoslash davlat yoki mahkama qiyoslovchisi malakasi berilganligi to'g'risida amaldagi guvohnomasi bor shaxslar tomonidan bajariladi.

Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati qo'llaniladigan sohada foydalanilishi mumkin bo'lgan o'lchash vositalarini tayyorlash, xaridga chiqarish va ijaraga berish ishlarini tadbirkorlik sub'ektlari qonunga muvofiq beriladigan litsenziya asosida bajaradi.

O'lchash vositalarini qiyoslash, sinashlarni o'tkazish, O'V ni va sinashlarni, o'lchashlarni bajarish metodikalarni metrologik attestatlash, O'V ni kalibrlash huquqiga yuridik shaxslarni akkreditlash jarayonida metrologik

tekshirish akkreditlanadigan sub'ekt tomonidan so'ralgan faoliyat uchun me'yoriy hujjatlarda belgilangan metrologik me'yorlar va qoidalarining bajarila olish mumkinligini tekshirish va baholashdan iborat. Metrologik tekshirish O'z DSt 16.4:2001, O'z DSt 8.006:1999 va O'z RH 51-016-93 bo'yicha bajariladi.

Metrologik xizmatlar, markaz, laboratoriyalarni sinashlar bo'yicha ishlarni, o'lchash vositalari va metodikalarini qiyoslash, kalibrlash, metrologik attestatlash yoki davlat metrologik tekshiruv va nazorati qo'llaniladigan sohada metrologik faoliyatning boshqa muayyan turlarini bajarishga akkreditlash bo'yicha qaror davlat metrologik xizmatining xulosasi bor bo'lganda qabul qilinadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarni me'yoriy va texnik hujjatlarini metrologik ekspertizadan o'tkazish, qiyoslash, kalibrlash, ta'mirlash, sinashlarni bajarish metodikalarini metrologik attestatlash, o'lchash vositalarini metrologik attestatlash (agar ularni davlat metrologik tekshiruv va nazorati sohasida qo'llanish mumkin bo'lsa) ishlarni o'tkazish huquqiga akkreditlash O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi o'rnatgan tartibda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismatullaev P.R., Maksudov A.N., Abdullaev A.X., Axmedov B.M., A'zamov A.A. Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish. «O'zbekiston» Toshkent-2001y.
2. Abduvaliev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Hakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008 y.
3. Мухаммадиев Б. С. ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 42-47.
4. Мухаммадиев Б. С., Шукуров С. У. ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ДАТЧИКОВ В ПРОИЗВОДСТВЕ //Экономика и социум. – 2025. – №. 9-1 (136). – С. 680-684.